ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№8
2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

// MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 472 sahifa,
1-avgust, 2025-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor***
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi....14
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna

O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari....20
Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li

Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi....25
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi....30
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi

Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati....33
Eshmuminova Oybarchin Botirovna

Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv....39
Isayeva Mushtariy Alisher qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari....44
Maydonova Saboxat Sadulloyevna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari....48
Mingbayeva Barno Ubaydullayevna

Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies....52
Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna

Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari....55
Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi

"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida....59
Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna

O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni....65
Umarova Feruzabonu Bobir qizi

Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri....68
Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich

O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari....72
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li

Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida....76
Boypolvonov Barot Djonqobulovich

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning lingvistik va lingvometodik talqini....81
Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi

O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari....86
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li

Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri....90
Jumanova Ug'iloy Sodiqjonovna

Oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish....96
Koshayeva Sansabila Kamiljanovna

Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni....100
Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati....105
Murodova Madina Karim qizi

Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari....108
Ortiqov Mironshoh Sodiqovich

Boʻlajak ingliz tili oʻqituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda Blended learning texnologiyasini Oʻzbekiston oliy taʼlim tizimiga tatbiq etish ........ 110
Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna

Oʻzbekistonda taʼlim sohasi boʻyicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari ........ 115
Quronboyeva Mavluda Bahodirovna

Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika ........ 120
Sidiqova Yulduz Sobirovna

6-sinf oʻquvchilarida matn bilan ishlash koʻnikmasini shakllantirish metodikasi ........ 123
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi

Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati ........ 128
Yusupov Ulugʻbek Kadirovich

Adabiy taʼlim jarayonida oʻquvchi maʼnaviy kamolotini taʼminlashda motivatsiya uygʻotish texnologiyalarini takomillashtirish ........ 132
F. Zaynabuddinov

Развитие поликультурной компетентности студентов в образовательной среде вуза ........ 135
Киреева Эльвина Фларитовна

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik xususiyatlar ........ 140
Sanayev Gayrat Shermuxamedovich

Maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot madaniyatini tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish ........ 144
Boyboʻriyeva Saodat Oʻralovna

Kattalar taʼlimi texnologiyasi: muammolar, yondashuvlar va rivojlanish yoʼnalishlari ........ 148
Davletova A.

Yangi Oʻzbekistonda inklyuziv taʼlimni rivojlantirishning huquqiy asoslari ........ 152
Gʻaniyeva Gulrux Tavakkaljon qizi

Innovatsion taʼlim texnologiyalari asosida boʻlajak oʻqituvchilarni maʼnaviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish ........ 156
Madmarova Gulchexra Qodirovna

Oʻlkashunoslik materiallarining oliy taʼlim jarayonida tarbiyaviy salohiyatini ochib berish ........ 160
Mamajonov Moʻminjon

Muhandislik grafikasi darslarida oʻquv faoliyatining shaxsga yoʻnaltirilgan innovatsion modeli ........ 165
Mamasidikova Gulnora Muhammad qizi

Sun'iy intellektga asoslangan taʼlimiy resurslarning pedagogik imkoniyatlari ........ 169
Muhiddinov Muhriddin Nuriddin oʻgʻli

Ijod maktablari oʻquvchilarining badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati ........ 173
Nurmatova Shohistaxon Muhammadjonovna

Voleybolchi qizlarni tayyorlashning differensial vositalaridan foydalanish zarurligini, ularning oʻyin ampluasini hisobga olgan holda aniqlash usullari ........ 178
Odilova Feruzaxon Valijon qizi

PIRLS baholash tizimini qoʻllash vositasida mustaqil oʻqishga oʻrgatishda IMEN texnologiyalaridan foydalanish ........ 184
Olimjonova Oʻgʻilxon Abdurasul qizi

Yoshlar oʻrtasida internet qaramligi va ijtimoiy izolyatsiya zamonaviy Maugli sindromining klinik koʻrinishlari ........ 188
Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich

Boshlangʻich maktabda oʻzbek tili darslarida differensial taʼlimdan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari ........ 192
Rasulova Nozigul Abdivahid qizi

Ona tili va oʻqish savodxonligi darslarida boshlangʻich sinf oʻquvchilarining nutqini takomillashtirish ........ 196
Sharofova Nilufar Ilhom qizi

Xalqaro baholash dasturlari asosida taʼlim samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari (PIRLS misolida) ........ 200
Tuxtasinova Munira Ibragimovna

Fransuz tili darslarida tabiatshunoslik atamalarini boshlangʻich sinflarda shakllantirish va oʻrgatishning oʻziga xos xususiyatlari ........ 204
Umarova Madinabonu Bahodir qizi

O'smir psixologik salomatligini barqarorlashtirishda art-terapiyadan foydalanishning imkoniyatlari ............208
Yusupxodjayeva Umida Baxodir qizi

Nofillologlarni (filolog bo'lmaganlarni) kasbiy aloqa madaniyatiga o'rgatish maqsadida zamonaviy ingliz tilining lingvometodik tahlili ............214
Zarina Itolmasova

Forsayt va qaror qabul qilishni bog'lovchi kognitiv komponentlar ............219
Hasanova Sumanbar Hamroqulovna

Разработка и внедрение виртуальных лабораторных работ по биохимии для студентов фармацевтических факультетов ............222
Мамадалиева Зарина

Abduqodir Shakuriyning ta'lim va tarbiya haqidagi umumiy qarash va g'oyalari: chuqur tahlil ............226
Ashurova Dilrabo Isroil qizi

Bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish tizimi ..230
Jakbarova Zarifaxon Solijon qizi

Badiiy-estetik qobiliyat tuzilmasi va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ............233
G. S. Kaxarova

Umumta'lim maktablarida informatika o'qitish asosida ta'limni raqamlashtirishning metodologik asoslari...236
Mamajanov Rakhmatilla Yakubjanovich

Shaxsda ma'naviy intellektni rivojlanishiga qadriyatlar yo'nalganligining ta'siri ............240
Mirxoliqova Charos Xabibullayevna

O'qituvchilarning sun'iy intellekt bo'yicha kompetentligini rivojlantirishda metodik yondashuv ............244
Najmetdinova Nargiza Sayfetdinovna

Ismlarning ma'noliligi va ularni o'qitishda lingvopedagogik yondashuvlar ............252
Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich

Fitnes-aerobika mashqlaridan foydalangan holda sog'lomlashtirish mashg'ulotlari uslubiyati ............258
Shaxriddinova Laylo Nurxonovna

Raqamli ta'lim texnologiyalarining didaktik va "learning analytics"ning nazariy asoslari ............262
Sulaymanov Zulqaynar Rajabali o'g'li

Esse yozishni o'rgatishda zamonaviy metodlar ............268
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi

Iqtisodiy matnlar tarjimasini o'rgatishda raqamli simulyatsiya va virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ............272
Xujanazarova Nozima Omonjonovna

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ilmiy metodologik asoslari ............275
Axmedov Nodir Sadir o'g'li

Talaba-yoshlarda qo'shiq ijrochilik san'atini shakllantirishning zamonaviy pedagogik xususiyatlari: ta'lim islohotlari kontekstida yondashuv ............279
Begisbay Temirbayev

Xorijiy davlatlarda biologiya o'qituvchilarini tayyorlash tajribasi va uni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari ............283
Hayitov Abdirasul Eshdavlatovich

Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalariga umumiy fizika kursini o'qitishda virtual labaratoriyalarning ahamiyati ............286
Abdurakibov Akmal Abdugaparovich

Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining gapirish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda yangi – "instruksional texnologiya" va sun'iy intellektga tayanib o'qitish metodologiyasi ............290
Abrorxo'ja Muminxo'jayev Muksumxodjayevich

Jaloliddin Rumiy fikrlarining hozirgi yoshlarga ta'siri ............296
Allayarov Doniyor Islom o'g'li

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ............298
Aygul Aralbayevna Urazimbetova

Sud psixologik ekspertizasida travmatik tajriba (PTSD) fonida emotsional reaksiya va ko'rsatma sifati o'rtasidagi bog'liqlik ............301
Dehqonboyev Shohjahon Oybek o'g'li

Boshlang'ich ta'limda 4 "K" kompetensiyalarini rivojlantirishdagi muhim dolzarbliklar ............307
Idiyeva Gulchehra Izomovna

Bikaryer oilalarda gender rollar integratsiyasi jarayonidagi psixologik omillar ........ 311
Ishboboyeva Gulbarchin Rustam qizi

Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda sun'iy intellekt texnologiyalarida foydalanish muammolari va yechimlari ........ 315
Karshiyeva Dilnoza Utkirjonovna

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning metakognitiv ko'nikmalarini shakllantirishda reflektiv yondashuv ........ 319
Laylo Baxtiyor qizi Axmedova

1939-1945-yillarda O'zbekiston hududida qishloq xo'jaligidagi paxtachilik va oziq-ovqat muammolari ........ 323
Mutallibjonov Boburmirzo Muzaffarovich

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining tajriba oxiri jismoniy tayyorgarligi darajasi dinamikasi ........ 328
Samadov Sardor Sodiqovich

O'zbekiston umumta'lim maktablarida mazmun va til integratsiyalashgan o'qitish (CLIL) yondashuvining pedagogik va amaliy imkoniyatlari ........ 335
Tursunaliyeva Muattar Alisher qizi

O'rta maktab 11-sinf o'quvchilarining lug'at boyligini oshirishda turli metodlarning o'rni ........ 340
Xamzayeva Ruxshona Abdusamadovna

Umumta'lim maktablardagi ingliz tili o'quv darsliklari tahlili ........ 344
Xiloldinova Zulayho

Ingliz klassik adabiyoti orqali talabalar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari ........ 348
Ziyotov Farruh Saodilla o'g'li

XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida ingliz dramasining janr va uslub xususiyatlari ........ 352
Sherqulova Zuloyho Dilshod qizi

Биохимическая роль витаминов как кофакторов в метаболических процессах организма ........ 356
М. У. Джалилов

ESL/EFL (ingliz tili ikkinchi/chet til sifatida) konteksларida lug'at boyligini rivojlantirishda loyiha asosidagi ta'lim (PBL – Project-Based Learning): tajribalar, natijalar va O'zbekiston sharoiti uchun tavsiyalar ........ 359
Masharibova Sayyora Ahmedovna

Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda kognitiv tezkorlikni rivojlantirishda multisensor yondashuvning samaradorligi ........ 364
Musratova Zilola

Yangi O'zbekiston sharoitida talabalarning tarixiy dunyoqarashini rivojlantirishda tarixiy ongning ahamiyati ........ 367
Shadibekova Dildora Fazildjanovna

O'zbekiston maktablarida ingliz tili darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: yuqori sinflarda eksperimental tadqiqot dizayni ........ 371
Ahmadjonova Diyora Dilshod qizi

Texnika oliy ta'lim muassasalarida umumiy kimyo kursini integrativ takomillashtirishning ilmiy metodik asoslari ........ 376
A. A. Xaydarov

Sport faoliyatida pedagogning o'rni ........ 380
Isoqov Nuriddin Halim o'g'li

Katta maktabgacha yoshdagi yengil dizartriya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarning lug'at boyligini tekshirish ........ 384
Mamatova Aziza Bo'riboyevna, Xayrulloyeva Marjona Tuychi qizi

Sharqiy mintaqalarda ajrimdan keyingi erkaklarning pxilogik holati: an'anaviylik va zamonaviylik o'rtasida ........ 387
Nazokat Xudoyqulova

Modellashtirish jarayonida "Geogebra" matematik dasturining imkoniyatlari ........ 393
O. Halimov, M. Jo'raqulova

Bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik psixologik asoslari ........ 398
Ozoda Tolipova, Jumaboyeva Zarnigor

Shaxsda psixologik barqarorlikni rivojlantirish omillari ........ 403
Ozoda Tolipova

Oilaviy qo'llab-quvvatlovsiz sportchilarda yolg'izlik hissi va depressiv belgilarning paydo bo'lishi ........ 407
Qaimova Gulmira Uchqun qizi

Duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarda oilaning oʻrni ........ 410
Raxmatova Elmira Shavkat qizi
Ajrashgan oilalarda voyaga yetmagan bolalarning psixologik moslashuv darajasi ........ 413
Roʻziyeva Zilola Fayzulla qizi
Rinolaliya nutq nuqsoniga ega bolalar bilan operatsiyadan oldingi davrda olib boriladgan logopedik ishlar ........ 417
Shokirova Shaxnoza Dilmurodovna, Nigʻmatova Movluda Asatulla qizi
Erta turmush qurish muammosining ijtimoiy psixologik asoslari........ 421
Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi
Pedagogik kompetentlikni shakllantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati ........ 424
Gʻofurova Mohidil Sayfutdin qizi
Integrativ yondashuv asosida v-vi sinflarni raqamli texnologiya vositasida oʻqitishning pedagogik va psixologik mezonlari........ 427
Abdugʻafur Avliyoqulov
Raqamli ta’lim muhitida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining akmeologik pozitsiyasini rivojlantirish ........ 432
Aralova Dilafruz Dushaboy qizi
Pedagogical Foundations for the Development of National Sports Within the Framework of Physical Education for Schoolchildren ........ 436
Aximbetov Bayrambay Kanatbayevich
Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida zamonaviy integrativ metodlar asosida ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning didaktik modeli ........ 441
Boltayeva Xolida
Oʻsmirlarda gender indefikatsiya namoyon boʻlishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar ........ 446
Karimova Gulhumor Shodi qizi
Talabalarni psixologik treninglar asosida ijtimoiylashtirish omillari ........ 449
Omonova Oygul Qodir qizi
Talabalarda bashoratlash koʻnikmalarini shakllantirishning ilmiy pedagogik masalalari........ 454
Rustamov Bektosh Ximmatovich
Boʻlajak musiqa oʻqituvchilarining badiiy ijod qobiliyatlarini rivojlantirish tamoyillari........ 458
Saddinov Alisher Atadjanovich
How to Teach Vocabulary in EFL Classrooms........ 462
Sarvinoz Mirzaliyeva
Urologiyani oʻqitishda interaktiv, multimedia, raqamli texnologiyalarning qoʻllanilishi........ 465
Sayfetdinov Sanjarbek Ikramovich
Taekvondochilarni yillik siklda tayyorlashni rejalashtirish xususiyatlari........ 469
A. A. Nuritdinov



# BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINING BADIIY IJOD QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI

Saddinov Alisher Atadjanovich
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
Urganch filiali stajyor-o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining badiiy ijod qobiliyatlarini rivojlantirishning metodologik asoslari, tamoyillari va samarali usullari yoritilgan. Talabalarning ijodiy tafakkuri, tahlil qilish qobiliyati va estetik didini rivojlantirish yo‘llari badiiy-evristik yondashuv, muammoli vaziyatlardan foydalanish hamda musiqiy asarlarni ko‘p variantli talqin qilish orqali tahlil etilgan. Shuningdek, o‘quv jarayonida musiqiy asarlar ustida ishlashning bosqichlari, o‘zaro taqqoslash, obrazli ifoda vositalarini aniqlash va musiqiy tafakkurni shakllantirishning muhim jihatlari asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** musiqa o‘qituvchisi, badiiy ijod, ijodiy qobiliyat, musiqiy tafakkur, interpretatsiya, muammoli usul, evristik yondashuv, musiqiy tahlil.

**Abstract:** This article highlights the methodological foundations, principles, and effective methods for developing the artistic and creative abilities of future music teachers. The study analyzes ways to enhance students’ creative thinking, analytical skills, and aesthetic taste through an artistic-heuristic approach, the use of problem-based situations, and multi-variant interpretation of musical works. Furthermore, it substantiates important aspects of working with musical compositions in the educational process, including stages of analysis, comparison, identification of expressive means, and the development of musical thinking.

**Key words:** music teacher, artistic creativity, creative abilities, musical thinking, interpretation, problem-based method, heuristic approach, musical analysis.

**Аннотация:** В данной статье освещены методологические основы, принципы и эффективные методы развития художественно-творческих способностей будущих преподавателей музыки. Проанализированы пути развития творческого мышления, аналитических способностей и эстетического вкуса студентов посредством художественно-эвристического подхода, использования проблемных ситуаций и многовариантной интерпретации музыкальных произведений. Кроме того, обоснованы важные аспекты работы над музыкальными произведениями в учебном процессе, включая этапы анализа, сопоставления, выявления выразительных средств и формирования музыкального мышления.

**Ключевые слова:** преподаватель музыки, художественное творчество, творческие способности, музыкальное мышление, интерпретация, проблемный метод, эвристический подход, музыкальный анализ.

## KIRISH

Musiqa ta’limi – pedagogik jarayonda faqatgina bilim berish emas, balki o‘quvchilarda badiiy-estetik tafakkur, ijodiy fikrlash va san’atga nisbatan chuqur qiziqishni shakllantirish maqsadini ham ko‘zda tutadi. Bu jarayon, o‘z navbatida, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining o‘zlarini ijodkor shaxs sifatida shakllantirishini, ularning badiiy tafakkuri va ijodiy salohiyatining uzluksiz rivojlanib borishini taqozo etadi. Zero, san’at – inson qalbini tarbiyalovchi, ruhiy olamini boyituvchi va ma’naviy kamolotga yetaklovchi eng kuchli vositalardan biridir.

Yangi O‘zbekistonning ma’naviy yangilanishida aynan musiqa san’atining tutgan o‘rni beqiyos bo‘lib, bu yo‘nalishdagi islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-sonli[1] qarori bu borada muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur qarorda musiqa ta’limini rivojlantirish yo‘nalishida qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, o‘quv soatlari doirasida “Hayotimga hamrohdir cholg‘u” shiori ostida cholg‘u ijrochiligi mashg‘ulot-

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-sonli qarori: https://lex.uz/uz/docs/-5849580

larini yo'lga qo'yish, darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilar uchun mazmunli musiqa to'garaklarini tashkil etish, shuningdek, ta'lim muassasalarini zamonaviy nota to'plamlari va musiqiy adabiyotlar bilan ta'minlash tizimini joriy etish [1] kabi strategik yo'nalishlar ilgari surilgan.

Mazkur qarorda qayd etilgan chora-tadbirlar zamirida bir maqsad – yosh avlod qalbida musiqaga, san'atga, milliy madaniyatga muhabbatni uyg'otish, ijodiy salohiyatni namoyon etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish yotadi. Bu esa, o'z navbatida, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy va ijodiy rivojiga doir yondashuvlarni yangilash, zamonaviy pedagogik tamoyillarga asoslangan ta'lim tizimini shakllantirishni taqozo etmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining badiiy ijod qobiliyatini rivojlantirishning asosiy mezoni – ularning musiqa ijrochilik faoliyatida badiiy-obrazli ibtido (eydos)ning to'liqligi va yorqinligi, tasvirni texnik jihatdan aniq qayta yaratish qobiliyati, shuningdek, bu obrazlarning material shaklda adekvat ifodalana olishi bilan belgilanadi. Ijro etilayotgan asarning mazmuni, undagi badiiy obraz talaba tomonidan chuqur anglanadi, bu esa uning interpretatorlik g'oyasi bilan uyg'unlashgan holda asarga individual yondashuvni shakllantirishga olib keladi. Natijada, talabaning ijrosi orqali asar mazmuni o'zining real ifodasini topadi.

Yetuk musiqa ijrochisining kasbiy faoliyati esa aynan shu jarayonni takomillashtirish, aniqlashtirish va kristallashtirish orqali yuksak badiiy darajaga olib chiqishdan iboratdir. Mazkur holatni hisobga olgan holda, musiqa ta'limi jarayonida asosiy metodik tamoyil – talaba tomonidan yetuk ijodiy faoliyatga xos bo'lgan jarayonni modellashtirish bo'lishi lozim. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak musiqa o'qituvchilari uchun eng samarali metodik yondashuv bu – ijodiy jarayonni modellashtirish metodidir. Bu metod orqali talaba o'zining musiqiy tafakkurini faollashtiradi, ijodiy holatga kiradi va ijro davomida badiiy tafsirni shakllantiradi. Ayniqsa, ijodiy faoliyatni modellashtirish vositasida talabaning o'ziga xos interpretatsiya uslubi shakllanadi, bu esa uning professional tayyorgarligini chuqurlashtirishga xizmat qiladi [4, 67-b].

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining badiiy ijod qobiliyatlarini rivojlantirishda ularni o'qitish usuli – bir vaqtning o'zida talabaning ichki, asosiy kuchlarini shakllantirish va rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qilishi lozimligi aniqlashtirildi. Bunday yondashuv, eng avvalo, musiqa ta'limi yo'nalishidagi talabalar ijodiy salohiyatining shakllanishida muhim omil bo'lgan "ichki kuchlar", ya'ni badiiy tafakkur va obrazli ifoda vositalarini rivojlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Mazkur uslubiy yondashuvning asosiy tamoyili – talabalarning badiiy ijodiy jarayonni uning barcha xususiyatlari va ichki qonuniyatlari bilan modellashtirish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgandir.

Ushbu yondashuv ayrim ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda (masalan, H. Hasanov, D. Omonova) nazariy jihatdan yoritilgan bo'lsa-da, amaliy-uslubiy jihatdan to'liq ishlab chiqilmagan va aksariyat hollarda umumiy konseptual yondashuv darajasida cheklangan [6, 54-b]. Oliy ta'lim muassasalarining musiqiy-nazariy fanlariga oid mashg'ulotlarida "ijodiy jarayonni modellashtirish" deganda, bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy, ijrochilik va pedagogik faoliyatini egallashga qaratilgan, musiqa ijrochiligining barcha bosqichlarini puxta o'zlashtirishga intilgan, maxsus nazariy hamda ijroviy-texnik omillarni uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan kompleks ijodiy rivojlanish jarayoni tushuniladi. Bu jarayon, shuningdek, "ko'p o'lchovli" badiiy ijodiy qobiliyatlarni tarkib toptirishni ham o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, ijodiy modellashtirishda muhim jihatlardan biri – bu badiiy ijodning preventiv (ya'ni, oldindan ongda vujudga keluvchi) xususiyatidir. Asarni ijro etishdan oldin, talabaning ongida uning badiiy g'oyasi shakllanishi, ya'ni ijro harakatlaridan ilgari estetik va mazmuniy reja yuzaga kelishi zarur.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

"Ijodiy jarayonni modellashtirish" haqida gap ketganda, ikki muhim komponent nazarda tutiladi:

*birinchidan,* ijro harakatlari boshlanishidan oldin asarning badiiy g'oyasini shakllantirish;

*ikkinchidan,* bo'lajak musiqa o'qituvchilarining cholg'u asboblarida ijro etish yoki vokal (xonandalik) asarlarni kuylash jarayonida samarali va ijodiy ijrochilik qobiliyatlarini takomillashtirish.

Shu asosda, musiqa ta'limida ijodiy faoliyatni modellashtirish yondashuvi nafaqat nazariy bilim, balki amaliy-ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishda ham muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Demak, o'qituvchi-musiqachining o'quv faoliyatidagi asosiy strategik yo'nalishlardan biri – asarning to'laqonli badiiy qiyofasini yaratish uchun ongli, maqsadli faoliyat bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan uni yaratishda qatnashayotgan talabaning badiiy ijod qobiliyatining barcha tarkibiy qismlarini rivojlantirish zarur.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining badiiy ijod qobiliyatlarini rivojlantirish metodologik nuqtai nazardan qaralganda, avvalo bir nechta variantli badiiy ijro tamoyillari ilgari suriladi. Bu tamoyillarning mohiyati shundan iboratki, ma'lum bir asarni o'rganish jarayonida, ayniqsa yangi musiqiy materialni auditoriyada tahlil qilish va

ishlab chiqish bosqichida, talabalarga yagona emas, balki bir nechta interpretatsion “faraz”larni ilgari surish imkoniyati yaratiladi. Bu esa o‘z navbatida, talabaning badiiy ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy strategik vazifani hal qilishga yordam beradi.

Mazkur yo‘nalishda samarali usullardan biri – bu, shubhasiz, badiiy-evristik yoki muammoli ta’lim usulidir. Muammoli vaziyatlarga asoslangan yondashuv orqali o‘quv jarayonida kompleks va elementar badiiy-qidiruv vazifalarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Ushbu usullar tizimlilik tamoyiliga asoslanib amalga oshiriladi va aynan shu tamoyil ularning samaradorligini oshiradi.

Kompleks muammoli vaziyat yaxlit badiiy g‘oyani yaratishga qaratilgan bo‘lib, alohida kompozitsiya va shaxsiy musiqiy ifoda vositalari chegarasidan tashqarida izlanishni talab qiladi. Bu jarayon musiqaning elementar nazariyasidan tortib, uning ham cholg‘u, ham xonandalik ijrochiligidagi muammoli vaziyatlarni aniq hamda musiqa asari ustida ishlash g‘oyasining hamda musiqiy fikrning rivojlanish dinamikasi, tovushning eng nafis nyuanslarini topish bilan bog‘liqdir.

Kompleks va elementar muammoli vaziyatlar dialektik jihatdan o‘zaro bog‘liqdir. Bu borada MDH olimlaridan B. V. Asafevning “elementar vaziyat kompleks vaziyat fonida paydo bo‘ladi va yechim topadi (badiiy g‘oya bilan o‘zaro bog‘lanmagan biron bir nyuansni topish mumkin emasligi aniq) va kompleks muammoli-qidiruv vaziyat asosiy ifodali-tematik mazmunini – yetakchi musiqiy g‘oyani izlashni o‘z ichiga oladi” degan fikrlariga tayanish mumkin. Shu nuqtai nazardan kelib chiqadigan bo‘lsak, kompleks muammoli vaziyatni quyidagicha tashkil etilishi mumkin degan fikrga keldik.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Talabaning e’tibori o‘rganilayotgan asarning tegishli badiiy g‘oya qatlamiga qaratiladi. Buning uchun mazkur musiqiy asarning kompozitsiyasi bastakorning badiiy uslubiga, uning yo‘nalishiga, shuningdek, yozuvchi, shoir va bastakorning ijodiy hamkorligi natijasida yuzaga kelgan asarning umumiy ta’sirchanlik darajasiga qarab tahlil qilinadi. Bunga qo‘shimcha ravishda, asarning keng omma orasida ommalashganligi hamda oliy ta’lim muassasalari o‘quv dasturlariga kiritilganligi kabi omillar ham hisobga olinadi. Aynan shu omillar asosida asarning badiiy ta’sirchanligi boshqa san’at asarlari bilan taqqoslash orqali aniqlanadi.

Talaba o‘rganilayotgan bastakorning asarini badiiy ijod namunasiga aylantirib, uni shu yo‘nalishdagi boshqa bastakorlarning musiqiy asarlari bilan taqqoslash zarurligi ta’kidlanadi. Ushbu bosqichdagi asosiy vazifa – ko‘rib chiqilayotgan musiqa asarining umumiy va o‘ziga xos jihatlarini aniqlash, kompozitsiyaning uslubiy va janr xususiyatlarini ochib berish hamda tahlil qilinayotgan musiqiy asarlar o‘rtasidagi muhim badiiy bog‘liqliklarni ko‘rsatib berishdan iboratdir. Natijada, talaba tomonidan asarning mazmun-mohiyatiga eng mos keladigan, ichki dunyosi bilan uyg‘un interpretatsion variant va uning invariyantini topish imkoniyati yuzaga keladi.

Mazkur tahliliy yondashuv samaradorligini oshirishda elementar muammoli vaziyatlardan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Bunday vaziyatlar ayniqsa asarning eng muhim fikriy birliklari ustida ishlash jarayonida yuzaga keladi. Elementar muammoli vaziyat sharoitida talaba musiqa asarini chuqur tahlil qiladi: kompozitsion ifoda vositalarini qismlarga ajratadi, alohida tuzilmalarni aniqlaydi, ularni bir necha marotaba taqqoslaydi va solishtiradi, obrazlarni oldindan belgilangan shakllarda tasavvur qiladi, o‘ziga xos nyuanslarni aniqlab, ularni umumlashtirishga intiladi va tegishli xulosalarga keladi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, muammoli (qidiruvga asoslangan) usullar talabaning nafaqat musiqiy-ijodiy fikrlashini, balki uning kasbiy va ma’naviy-shaxsiy rivojlanish darajasini ham belgilaydi. Shu sababli bu usullarni qo‘llashda talabaning intellektual, estetik va emotsional tayyorgarlik darajasi doimo e’tiborga olinishi lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining badiiy ijod qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish – ularning kasbiy tayyorgarligidagi asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon, avvalo, musiqiy asarlarning mazmun-mohiyatini chuqur anglash, ularni tahlil qilish, talqin qilish va ijodiy interpretatsiya qilish malakalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, badiiy ijod qobiliyatini rivojlantirishda bir nechta variantli interpretatsion yondashuvlar, muammoli-ta’limiy metodlar, evristik usullar va tizimlilik tamoyili muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, musiqiy material ustida ishlash jarayonida talabaning ijodiy tafakkurini faollashtirish, obrazli tasavvurini boyitish va mustaqil badiiy qarashlarini shakllantirish zarurdir.

Shuningdek, muammoli vaziyatlar asosida olib boriladigan tahliliy va qidiruv faoliyati talabaning musiqiy didini, analitik tafakkurini va badiiy-estetik qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa, o‘z navbatida, ularning nafaqat o‘quv jarayonida, balki kelgusidagi pedagogik faoliyatida ham samarali ishlashlariga zamin yaratadi. Muxtasar qilib aytganda, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining badiiy ijodiy salohiyatini yuksaltirish – nafaqat ularning kasbiy kompetensiyasini shakllantiradi, balki musiqiy-ma’naviy tarbiya berish jarayonida jamiyat ehtiyojlariga mos ijodkor pedagoglarni yetishtirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-son qarori.: https://lex.uz/uz/docs/-5849580
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 15-noyabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim maktab-larida musiqa madaniyati fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-391-son qarori.: https://www.lex.uz/uz/docs/-7221711
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son qarori.
4. Vetlugina N. A., Keneman A. V. Teoriya i metodika muzykal'nogo vospitaniya v detskom sadu. – M.: Prosveshchenie, 1983. – 255 s.
5. Panjiyev Q. B. O'zbek xalq qo'shiqlari vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillasht-irish. Monografiya. – 2022. – 202 b.
6. Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi shaxsini shakllantirish. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya (13.00.01). – 2006. – 198 b.
7. Archajnikova L. G. Professiya – uchitel' muzyki. – M.: Prosveshchenie, 1984. – 110 s.
8. Каюмов И. Ф., Жураева М. Место музыки в воспитании духовно-нравственных качеств учащихся 5–7 классов общеобразовательных школ. Проблемы педагогики. – 2020.
9. Kushaev I. A. Musical pedagogical fundamentals of doston art. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020-10-10. – Pp. 1061–1067.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

**Mas’ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №8**

© Materiallar koʻchirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali 26.09.2023-yildan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.